

SURXON DAVLAT QO'RIQXONASINING GEOGRAFIK O'RNI

To'xtayev Barotali Mustofoqul o'g'li

Termiz Davlat universiteti 2-kurs talabasi

E-mail: toxtayevbarotali@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda yurtimizda 9 ta qo'riqxonalar mavjud bo'lib qo'riqxonalar tashkil qilinishidan maqsad yurtimizdagi yo'qolib ketish arafasida turgan o'simlik va hayvonot olamini saqlab qolish maqsadida tashkil qilingan. Ana shunday qo'riqxonalaridan biri Surxondaryo viloyati Sherobod tumanining ko'hitang tog' tizmasida joylashgan Surxon davlat qo'riqxonasi hisoblanadi maqolada Surxon davlat qo'riqxonasi geografik o'rni tabiiy sharoiti haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: geografik o'rni, chegaralari, tabiiy xaritasi, maydoni, eng baland joyi, relyefi.


Abstract: Today, there are 9 nature reserves in our country, and the purpose of the establishment of nature reserves is to preserve the flora and fauna of our country, which is on the verge of extinction. The article provides information about the natural conditions of the geographical location of the Surkhan State Reserve.

Muxofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish ekotizimlar xizmatlari bilan ta'minlanadigan afzalliklar hajmini ko'paytirish uchun muxofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini muqobil va samarali boshqarish va tabiiy bog'lar kompleks buyurtmaxonalar hisobiga tabiiy hududlar maydonini kengaytirish hisoblanadi. Mamlakatimiz turli sohalarda boy va o'ziga xos tabiatga ega, yil fasllari to'liq ifodalanadigan betakror hududlar qatoriga kirishi ayni haqiqatdir. O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarini muhofaza qilish va bioxilma-xillikni o'rganishda va saqlashda qo'riqxonalar ahamiyati juda katta. Qo'riqxonalar ma'lum bir hududdagi ekotizimlar uni tashkil etuvchi o'simlik va hayvonot dunyosini hamda ularning irsiy yaxlitligini muhofaza qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va yosh avlodni tabiat muhofazasi jonkuyarlari sifatida tarbiyalashda faol ishtirok etish maqsadida tashkil etiladi. Ana shunday qo'riqxonalaridan biri Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida tashkil qilingan Surxon davlat qo'riqxonasi hisoblanadi.

Surxon davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1986 yil 8 sentabrdagi № 445 sonli buyrug'iga muvofiq tashkil etilgan. O'sha davrda

qo'riqxonona o'z tarkibiga Amudaryo o'zanida joylashgan Payg'ambar-oral va Kuhitang bo'limlarini birlashtirgan edi. Hozirgi kunda qo'riqxonona maqomi faqatgina Kuhitang bo'limi hududida saqlanib qolgan bo'lib Payg'ambar-oral bo'limi hududi O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini qo'riqlash Qo'mitasi ixtiyoriga berilgan. Surxon davlat qo'riqxonasi ma'muriy boshqaruv tizimi jihatidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2017 yildagi "O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" gi PF-5041-sonli Farmoniga O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tarkibidagi Davlat qo'riqxonalari, milliy tabiat bog'lari va ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi boshqarmasi tizimiga kiritilgan edi. 2019 yilning iyun oyidan respublikamizdagi barcha qo'riqxonalar bilan bir qatorda Surxon davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.03.2019 yildagi 4247-PQ-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimidagi Bioxilma-xillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bosh boshqarmasi tarkibiga o'tkazildi. Surxon davlat qo'riqxonasi Pomir-Oloy tog' tizimining Janubi-G'arbiy qismi hisoblangan Ko'hitang tog' tizmasining sharqiy yonbag'rida joylashgan . Surxon davlat qo'riqxonasi hududi ma'muriy joylashishiga kura hozirgi kunda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumaniga qaraydi. G'arbiy chegarasi O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasining davlat chegarasiga to'g'ri keladi. Shimoliy chegarasi Ko'hitang va Boysun tizma tog'larini tabiiy ravishda ajratib turadigan Tangidevol darasidan oqib o'tuvchi Tangidevolsoy daryosining o'ng qirg'og'i buylab o'tadi. Janubiy chegarasi Xo'jaikon tuz koni bilan tutashib ketgan. Sharqiy chegarasi Xatak, Xo'janqo, Qizilolma, Shalqon, Kampirtepa, Sherjon va Vandob qishloqlari atrofidan o'tadi. Ko'hitang tizmasining g'arbiy yonbag'ri Turkmaniston Respublikasining hududi bo'lib, Koytendag (umumiy maydoni 27139 ga.) qo'riqxonasi joylashgan.

Qo'riqxon hududida 10 ta aylanma va 14 kvartalga ajratilgan bo'lib, umumiy may doni 23802 gektarni tashkil etadi



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1 Surxon Davlat qo‘riqxonasining Tabiat solnomasi Sherobod-2020
- 2 O.K.Berdiyev,X.B.Mahmudov Surxondaryo o‘lkasi tabiati.Termiz-1998.
- 3 A.S.Bekmurodov Surxondaryoning noyob hayvonlari Toshkent-2018
- 4 R.A. Qulmatov,K.E.Eshnazarov,T.SH.Xoliqulov “Surxon Davlat qo‘riqxonasi” Termiz-2002.
- 5 N.Xolmurodov Surxondaryo tabiati va uning muxofazasi Toshkent-1998.
- 6 J.A.Ibragimov Surxon Davlat qo‘riqxonasi florasi Toshkent-2010.
- 7 Surxon Davlat qo‘riqxonasining Tabiat solnomasi Sherobod-2021.
- 8 Surxon Davlat qo‘riqxonasining Tabiat solnomasi Sherobod-2022